

mumkin bo'lgan normasi" degan noto'g'ri nuqtainazar ishlatilmoqda. Hozirgi kunda "bu yo'nalish suvning ifloslanishini chegaralaydi", deb qarash o'zini oqlamaganligi hammaga ma'lum bo'lib qoldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xolmo'minov J.T. Ekologiya va qonun. - Toshkent: — "Adolat", 2000.
2. Файзиев Ш.Х. Экологическая политика государства: проблемы правового обеспечения. — Ташкент: 2004.
3. Nigmatov A.N. O'zbekiston Respublikasining Ekologiya huquqi. Darslik - Toshkent: TDYUI, 2004.

### **ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISHI, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

*Obidov Dilshodbek Qurbanovich, Komilov Zafarjon Mirzaolimovich  
Central Asian Medical University*

**Kirish.** Atmosfera (yunoncha atmos - bug' va sfera ) - yer sharini o'rab olgan va u bilan birga aylanadigan havvo qobig'i. Atmosfera Yer yuzini o'rab olgan havo q'talamidan iborat bo'lib, uning ig'irligi Yer shari og'irligini milliondan bir bo'lagiga teng, ya'ni atmosfera havosining umumiy massasi 5000 trillion tonnadan ko'proq bo'lib ,u yer yuzasini 1kvGsm ga 1,32 kg dan to'g'ri keladi .Atmosferani yuqori chegarasi qilib shartli ravishda 3000 km balandlik qabul qilingan. Atmosfera Yerning himoya qatlami bo'lib tirik organizmlarni turli ultrabinafsha nurlardan, kosmosdan tushadigan meteroitlarni zarrachalaridan asraydi. Atmosferani taxminiy tarkibi quyidagicha: 1)Azot 78,084% 2) kislorod% 20,9% 3) Karbonat angidrid 0,034% 4) Argon 0,934% 5)Neon 0,0018% 6)Vodorod 0,00005%

Atmosfera havosini ifloslanishi bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Uzoq vaqt davomida yog'ingarchilikni yo'qligi, kuchsiz shamollar,haroratning inversiyasi atmosfera havosining turg'unligiga imkon beradi,bu esa ifloslantiruvchi moddalarning to'planishiga sharoii yaratadi. Respublikamizda havoning chang bilan ifloslanishi nafaqat tabiiy hususiyatlar (quruq iqlim, qumli va qumloq tuproqlar) balki antropogen omillar(avtomobil chiqindilari,sanoat,qurilish,issiqlik elektr stansiyalari)bilan bog'liq. Ayniqsa zich joylashgan shaharlar, transport vositalarining ko'pligi, trbandliklar, baland binolarning keng ko'lamda qurilishi, daraxt va maysazorlarning kesilishi katta ekologik muammolarga olib keladi. Sanoat korxonalaridan chiqadigan zararli moddalar ochiqchasiga atmosferaga qo'yib yuborilishi masalan Farg'ona shahridagi yog' moy zavodi shahar ichida joylashgan paytda havo juda ifloslangan edi. Toshkent shahrida ham havoning ifloslanishi 2020- yil tahliliga ko'ra mayda disper zarrachalar bilan ifloslanishi darajasi 29,9 mikrogramni tashkil etib 106 ta mamlakat orasida 18 - o'rinni egallagan (Norma 10 mikrogram).

Toshkent shahrida 2023-yil 11- sentabr holatiga ko'ra 4- o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni qabul qilindi. Unda tabiatni muhofaza qilish,uni asrab avaylash va oqilona foydalanish borasida qator vazifalar belgilandi. Jumladan 24-maqsadda elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish choralarini ko'rish belgilandi. Toshkent shahriga ham yangi elektr aftobuslar keltirildi. Daraxtlarni kesish uchun ham cheklov qo'yish ishlari olib borildi.SHaharlarda ko'p kuzatiladigan kasalliklar yomon ob havo tufayli kelib chiqadi. Ayniqsa mashina va zavoddan chiqadigan tutunlar quyosh nurini to'sadi va qobiq hosil qilib D vitamin yetishmovchiligiga bunda quyosh nuri yaxshi yetib kelmay terida sintezlanishi kamayadi, nafas yo'llari kasalliklariga olib keladi

**Muammoni yechimi** yirik shahar va aholi zich joylashgan hududlarda ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borish, jamoat transport sifatini oshirish, qurilish ishlaridan chiqadigan chang va zararli moddalarni kamaytirish, yangi elektromobillar harid qilish zavod va fabrikalarda chiqadigan tutun trubinalariga filtrlar o'rnatish, barg sathi katta bo'lgan daraxtlar

ekish, jahon tajribasiga asoslangan holda ekologik vaziyatni yaxshilash. Aholini ekologik madaniyat saviyasini oshirish, Yangi velosiped yo'lkalarini qurish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning rivojlantirish taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi Prezident Farmoni.
2. Ахмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси //Т: Fan va texnologiya. – 2014. – Т. 340.
3. Ахмадалиев Ю.И., Абдуғаниев О. И. The value of geoeological principles in the system of protected natural territories //Узбекистон ва Россияда география фани: умумий муаммолар, ҳамкорлик салоҳияти ва истикболи. – 2019. – С. 48-50.
4. Ахмадалиев Ю.И. Необходимость проблемного подхода к исследованию земельных ресурсов региона //Актуальные вопросы современной науки. – 2015. – №. 3. – С. 24-28.

### **IQLIM MUAMMOLARINI HAL ETISHDA FOYDALANILADIGAN ZAMONAVIY O'LCHASH VOSITALARINING METROLOGIK PARAMETRLARI TAXLILI, ISHLAB CHIQRISH VA FOYDALANISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI TADQIQI**

*Obidov Jamshidbek G'ayratjon o'g'li - PhD, dotsent  
[jamshidobidov19@gmail.com](mailto:jamshidobidov19@gmail.com)  
Farg'ona politexnika instituti*

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda yangi ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish quvvatlari va investitsiya loyihalarini qisqa muddatlarda amalga oshirishni ta'minlash maqsadida loyiha tashabbuskorlari uchun bojxona rasmiylashtiruvda sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish – qabul qilingan qarorning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Texnik reglamentlar va terminlarni ishlab chiqish va amalga joriy etish natijasida ishlab chiqarilayotgan va olib kirilayotgan mahsulotlarga tegishli bo'lgan xavfsizlik ko'rsatkichlarini yagona xujjatga jamlash va ushbu talablar bajarilishi natijasida aholiga kafolatlangan xavfsiz mahsulot etkazib berish yo'lga qo'yiladi, xamda aholining sifatsiz mahsulotlar iste'moli natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari va turli xil og'ir kasalliklar oldi olinadi. Ishlab chiqarishda hom ashyo va energiya sarfini to'g'ri normalash va ularning amalga oshirilishini doimo nazorat qilib turish ishlab chiqarishning samaradorligini oshiradigan asosiy yo'llardan biri hisoblanadi. Shu sababli ishlab chiqarish ob'ektlarida (ish agregati, texnologik oqim liniyalari, tsex va zavodda) ishlab chiqarish jarayonlarining to'g'ri boshqarilishini ta'minlash uchun hom ashyo (suyuqlik va gazsimon moddalar, kislorod, suv, bug', kimyoviy reaksiyalar komponentlari va boshqalar) miqdorini uzluksiz o'lchab, ularning sarfini hisoblash turish va shuningdek ishlab chiqarish mahsulotlari miqdorini ham o'lchab nazorat qilib turish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak.

**Tadqiqot maqsadi va usullari.** Ishlab chiqarishning turli sohalarini rivojlantirish, tayyorlanayotgan mahsulotlarini sifatini oshirish ularni xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashda jahonda sanoatni yangi turdagi zamonaviy o'lchash vositalari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan standartlarni o'rganish va tahlil qilish muhimdir.

Hozirgi kunda sanoatning turli tarmoqlarida bosim va sarf o'lchash vositalari keng qo'llanilmoqda. Rivojlangan ishlab chiqarish korxonalarini tomonida ushbu sohada zamonaviy sarf o'lchash vositalari qo'llanilgan nazorat vositalari keng qo'llanilmoqda.

Yangi turdagi davlat standartlarini ishlab chiqish va amalda bo'lganlarini qayta ko'rib chiqish har yili shakllantiriladigan "Yangi turdagi davlat standartlarini ishlab chiqish va amalda